

**O‘QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI  
O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Hakimjonova Gulmira Azizbek qizi*

*Buxoro davlat Pedagogika Instituti I-bosqich magistranti.*

*Nurullayev F.G.*

*Buxoro davlat Pedagogika Instituti Musiqa va tasviriy san’at  
kafedrasи, p.f.f.d (PhD) professor.*

**Annotatsiya:** Maqolada o`quvchilarga bolalar folklor qo`shiqlarini o`rgatish turlari va ularning g`oyaviy-badiiy xususiyatlari va pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan. Folklor qo`shiqlari badiiy-estetik manbalar sifatida kishi hissiyoti orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir.

**Kalit so’zlar:** folklor, o`quvchi, pedagog, bola, g`oyaviy- badiiy, tarbiyaviy, serqirrali, qo`shiq, mantiqiy, marosim, lapar, ashula, yalla.

**Аннотация:** В статье рассматриваются виды обучения детей фольклорным песням, их идеально-художественные особенности и педагогические основы. Народные песни как художественно-эстетические источники являются средством воспитания ума через эмоции человека, а эмоций через интеллект.

**Ключевые слова:** фольклор, ученик, педагог, детский, идеально-художественный, образовательный, живой, многопрофильный, логический, ритуальный, лапар, песня, пляска.

O‘zbek folklorida o‘rganiladigan har bir qo‘shiqning yoki qatti-qarakatning ma’nosida xalqimizning azaliy tarixi yotadi. Aynan qo‘shiqlar orqali kishilarning hayoti kuylangan, yashash tarzi turli qarakatlar orqali aks ettirilgan. Musiqa madaniyati darslarida folklor namunalaridan foydalanishning qulay jihatlari shuki, oddiy xalq tili bilan kuylangan qo‘shiqlar va qarakatlar o‘quvchi yoshlar ongida tez shakllantiriladi. Musiqa san’ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi.

Birinchidan, har bir qo‘shiq musiqa orqali insonda yashirinayotgan qobiliyat va iiqtidorlarni topish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, san’at odamlardagi yomon sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy-madaniy merosni o`rganish va o`zlashtirish orqali o‘zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg`otadi. Uchinchidan esa san’at kishilarni jamiyatdagi mavjud kamchilik va muammolarni hal etishga safarbar etadi. Musiqa orqali yana takroran aytamizki, inson tarbiya topadi, xalqona yo‘lda yaratilgan qo‘shiqlar orqali kishilar tin oladilar. Biroz bo‘lsada madaniy xordiq chiqaradilar, qam-tashvishlarini unutadilar. Umuman olganda milliy qo‘shiq yoki musiqa inson qalbiga yaqin bo‘ladi.

Bunday ko‘rinishlar ko‘proq folklor yo‘nalishidagi kuy-qo‘shiqlarda namoyon bo‘ladi. Dars jarayonida o‘quvchilardan qanday folklor qo‘shiqlarini bilasizlar deb savol bersak 4 -5 ta qo‘shiqlarni sanab berishyapti xolos. SHuning uchun ko‘proq folklor qo‘shiqlarini dars jarayoniga olib kirish o‘rinlidir.

O‘zbek xalqining boshqa xalqlarda uchramaydigan andishalik, hayo, ibo, bir-birini qadrlashi, odob-axloq me’yorlarini ham musiqa tarbiyalay oladi. Ba’zi bir oramizda uchrab turadigan nobakor farzandlar o‘z ota-onalarini xafa qilgan paytlarida, radio orqali pand-nasihatga oid qo‘shiq tinglaganlarida o‘z vaqtida uzr so‘ragan paytlari ham bo‘lgan. CHunki, milliy musiqa orqali insonda olijanoblik, ulug‘vorlik yuzaga keladi. Musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko‘plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o‘zlarining ko‘rinishlariga ham g‘arbona tus bermoqdalar.. An’analarga sodiqlik tushunchalarini yoshlar ongiga sindirib borishda ularni g‘arbliklarga taqlid qilib kuylashni emas, balki milliy kuy va qo‘shiqlarini tinglashni, o‘zlariga tarbiyaviy saboq chiqarish lozimligini o‘rgatish zarur.

Ayniqsa, o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, milliy ohanglarni his eta bilishni shakllantirish lozim. Insonning qaysi millatga mansubligi faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Yigit-qizlarni aqliy-axloqiy, madaniy-ma’naviy jihatdan tayyorlamasdan, fanga iste’dodli yoshlarning kirib kelishini ta’minlamasdan, yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning yutuqlaridan bahramand qilmasdan, ularning qadriga etmasdan,, ularga ishonib-ishonmasdan turib, mamlakatimiz ma’naviyatini rivojlantira olmaymiz. SHunday ekan, ularni ma’naviy barkamolikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch-qudratiga tayangan xolda ibratli pand-nasihatga boy, xalqona yaratilgan kuy va qo‘shiqlaridan foydalanishimiz zarur. Mamlakatimizda yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo‘yilgan katta ma’suliyatni musiqa o‘qituvchisining oldiga vazifa qilib qo‘ymoqda. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo‘lib etishishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Yosh avlodni hayot va san’atdagi go‘zalliklarni teran idrok etishlari, ularning estetik tuyg‘u va badiiy didlarini o‘stirishda adabiyot, madaniyat va san’at katta ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham pedagogika fani, ta’lim amaliyotida o‘ziga xos maktab yaratgan mashhur olimlar va tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida pedagogik mazmun va mohiyat kasb etuvchi bilimlarga alohida ahamiyat bergenlar. Ular tarbiyaga daxldor har bir mashg‘ulot shaxsning barkamol rivojlanishiga samarali ta’sir o‘tkazishini ta’kidlaganlar.

Xalqning tarixiy taraqqiyoti mobaynida yaratilib kelinayotgan san’atning, uning sarchashmalaridan bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, qo‘shiqlar va musiqaning yoshlarning estetik didi va tuyg‘usini, dunyoqarashini o‘stirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Hayotning betakror qirralari va ijod ahlining lirik kechinmalarini o‘zida aks ettirgan folklor qo‘shiqlari o‘quvchilarning ongida ham nozik kechinmalarni uyg‘otib, ularni go‘zallik olamiga olib kirishi, axloqiy sifatlari uyg‘onishi, o‘qishda va mehnatda faollikka ruhlantirishi shubhasizdir.

## **ADABIYOTLAR**

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Нуруллаев Ф.Г. Обряды и обычай связанные с рождением и воспитанием ребенка. Музыкальное искусство и образование: традиции и инновации: сборник материалов международное научное конференции. Бухара, 2019. 317–320 стр.
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бuxоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN

SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.

11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Renabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.

12 Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.

13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.

14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159

15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.

16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

17. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O’zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.

18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.

19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.

20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 Accepted 14 May2022.

21. Istatov Muhriddin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78

22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
23. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.
24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.
25. DM Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'Zbek Folklorining O 'Rni Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
26. Egamov Oxunjon Saidovich, Nurullayev F.G.- BUXORO VOHASI FOLKLOR QO 'SHIQLARI O 'ZBEK XALQINING BOY MEROsi SIFATIDA, Conference - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." Vol. 1 No. 1 (2024)
27. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI, International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30,Tom-5,1, 515-520 betlar
28. F.G.Nurullayev, Xasanova Gulchehra Saidovna-FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS, International journal of artificial intelligence, ISSN: 2692-515X 2024/11/3
29. F.G. Nurullayev, Firdavs To'xtayev-MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar
30. F. Nurullayev. “Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari”-(PhD) Diss.ishi. 2021y